

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI**

KASBIY TA'LIM AGENTLIGI

KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI



«TASDIQLAYMAN»

kasbiy ta'limni rivojlantirish
instituti direktori

X. Kadirov

2026 yil

«TA'LIMDA BOSHQARUV»

kafedrası

IJTIMOIY PSIXOLOGIYA

fani bo'yicha

ISHCHI O'QUV DASTURI

Ta'lim turi:

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

**Tinglovchilar
toifasi**

Nomutaxassis oliy ma'lumotli shaxslar

TOSHKENT

Mazkur ishchi o‘quv dastur Nomutaxassis oliy ma’lumotli shaxslar bo‘yicha kasbiy qayta tayyorlash kursi o‘quv rejasi va namunaviy o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

N.A.Roziqova

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti,
“Ta’limda boshqaruv” kafedrası dotsenti,
P.f.f.d. (PhD)

Taqrizchilar:

M.Dadaxodjayeva

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti,
“Ta’limda boshqaruv” kafedrası dotsenti,
Psixologiya fanlari nomzodi

U.B.Mamanazarov

Oriental Universiteti “Uzluksiz ta’lim
pedagogikasi” kafedrası katta
o‘qituvchisi, Psixologiya fanlari falsafa
doktori (PhD)

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti Ilmiy-pedagogik kengashida ma’qullangan.
202__yil ____-sonli bayonnoma.

I. TUSHUNTIRISH XATI

Hozirgi globallashuv, axborot almashinuvining jadallashuvi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida insonning jamiyatdagi xulq-atvori, muloqot madaniyati va shaxslararo munosabatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turli ijtimoiy guruhlarda samarali faoliyat yuritish, jamoada sog'lom psixologik muhitni shakllantirish, nizoli vaziyatlarni bartaraf etish hamda ijtimoiy ta'sir mexanizmlarini anglash bugungi kunda har bir mutaxassis uchun dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, ijtimoiy psixologiya fanini o'rganish shaxsning kasbiy va ijtimoiy faoliyatini samarali tashkil etishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 23 iyulda "Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi O'RQ-989-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrda "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-190-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-316-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyulda "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 577-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevralda "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 106-son Qarori hamda Nomutaxassis oliy ma'lumotli shaxslar bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash kursining namunaviy o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur fan tinglovchilarda insonning ijtimoiy muhitdagi xulq-atvori, shaxslararo munosabatlar va guruh jarayonlari haqidagi nazariy bilimlarni shakllantirish hamda ularni amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ijtimoiy psixologiya shaxsning jamiyat bilan o'zaro ta'siri, ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadigan psixik jarayonlar, muloqot va jamoadagi munosabatlarni o'rganuvchi muhim sohalardan biri hisoblanadi.

Fan doirasida muloqot psixologiyasi, ijtimoiy idrok, ijtimoiy ustanovkalar, shaxslararo munosabatlar, liderlik, konformizm, guruh dinamikasi va jamoaviy qaror qabul qilish jarayonlarining psixologik xususiyatlari o'rganiladi. Shu bilan birga, shaxsning ijtimoiylashuvi, guruhdagi roli, nizolar, stereotiplar va ijtimoiy

ta'sir mexanizmlarining nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil qilinadi.

Fanni o'qitish jarayonida tinglovchilarda samarali muloqotni tashkil etish, guruhda ishlash, ijtimoiy munosabatlarni tahlil qilish, nizoli vaziyatlarni boshqarish hamda zamonaviy jamiyatda zarur bo'lgan ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Nazariy bilimlar amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlanib, tinglovchilarning kasbiy faoliyatida ijtimoiy-psixologik yondashuvlarni samarali qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ushbu o'quv fani o'quv yuklamasi 60 soat bo'lib, shundan:

Jami auditoriya o'quv yuklamasi	- 60 soat
Jumladan: Nazariy mashg'ulotlar	- 24 soat
Amaliy mashg'ulotlar	- 36 soat

II. FANNING NOMI VA MAQSADI

2.1. Fan nomi: Ijtimoiy psixologiya.

2.2. Fan maqsadi: Tinglovchilarda insonning ijtimoiy muhitdagi xulq-atvori, shaxslararo munosabatlar, guruh jarayonlari va ijtimoiy ta'sir mexanizmlari haqida nazariy bilimlarni shakllantirish, shuningdek, muloqot psixologiyasi, ijtimoiylashuv, liderlik, nizolar va jamoaviy qaror qabul qilish jarayonlarini tahlil qilish hamda amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikma va malakalarini takomillashtirish.

2.3. Tinglovchilar ushbu fanni o'rganish natijasida milliy malaka tizimiga taalluqli quyidagi bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladilar:

Bilim	Ko'nikma	Kompetensiya
Ijtimoiy psixologiya fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va asosiy tushunchalari.	Shaxslararo munosabatlar va guruh jarayonlarini psixologik jihatdan tahlil qilish.	Ijtimoiy muhitda shaxs va guruh xulq-atvorini kasbiy nuqtai nazardan baholash.
Shaxsning ijtimoiy muhitdagi xulq-atvori va ijtimoiylashuv jarayonlarining psixologik xususiyatlari.	Jamoaviy qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etish va psixologik yondashuvlarni qo'llash	Kasbiy faoliyatda ijtimoiy-psixologik bilimlardan foydalanish.
Muloqot psixologiyasi, ijtimoiy idrok va ijtimoiy ustanovkalarining mazmun-mohiyati.	Muloqot jarayonida samarali kommunikatsiya usullarini qo'llash	Turli auditoriyalarda samarali muloqot va hamkorlikni tashkil etish.
Guruh turlari, guruh dinamikasi, liderlik va konformizm jarayonlarining nazariy asoslari.	Guruhdagi ijtimoiy rollar va munosabatlarni aniqlash.	Guruhda liderlik, ijtimoiy ta'sir va munosabatlar dinamikasini boshqarish.
Nizolar, stereotiplar va ijtimoiy ta'sir mexanizmlari.	Nizoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularni hal etish usullaridan foydalanish.	Nizoli vaziyatlar va ijtimoiy ta'sir mexanizmlarini boshqarish.
Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy	Ijtimoiy-psixologik trening	Shaxsning ijtimoiy

kompetensiyalarni rivojlantirish usullari.	elementlarini amaliyotda qo'llay olish.	kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.
--	---	--

2.4. Fan bo'yicha soatlar taqsimoti:

№	Mavzular	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat				
		Hammasi	Auditoriyalardagi o'quv yuklamasi			Mustaqil ta'lim
			Jami	jumladan:		
		Nazariy		Amaliy		
1	Ijtimoiy psixologiya fanining predmeti va vazifalari	2	2	2		
2	Ijtimoiy psixologiya tadqiqot metodlari	4	4	2	2	
3	Shaxs va ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir	2	2		2	
4	Shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni	2	2		2	
5	Ijtimoiy rol va maqom tushunchasi	4	4	2	2	
6	Shaxslararo munosabatlar va ularning turlari	4	4	2	2	
7	Shaxslararo muloqotda empatiya va faol tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish	4	4		4	
8	Ijtimoiy idrok va persepsiya jarayonlari	4	4	2	2	
9	Ijtimoiy ustanovkalar va attityudlar	4	4	2	2	
10	Kichik guruhlar psixologiyasi	4	4	2	2	
11	Guruhda liderlik va rahbarlik	6	6	2	4	
12	Guruh bosimi va konformizm	2	2		2	
13	Guruh dinamikasi jarayonlari	4	4	2	2	
14	Jamoaviy qaror qabul qilish psixologiyasi	4	4	2	2	
15	Nizolar psixologiyasi va konfliktlarni hal etish	4	4	2	2	
16	Stereotiplar va ijtimoiy ta'sir mexanizmlari	4	4	2	2	
17	Ijtimoiy ta'sir va manipulyatsiya holatlarini aniqlash	2	2		2	
Jami:		60	60	24	36	

III. FAN BIRLIGINING MAZMUNI

3.1. Nazariy mashg'ulotlar mazmuni

1 mavzu: Ijtimoiy psixologiya fanining predmeti va vazifalari. Ijtimoiy psixologiya fanining shakllanishi, uning psixologiya va sotsiologiya bilan bog'liqligi, asosiy o'rganish ob'ekti - shaxs va ijtimoiy muhit o'zaro ta'siri masalalari. Ijtimoiy psixologiyaning predmeti sifatida shaxsning ijtimoiy xulq-atvori, guruhdagi munosabatlar. Ijtimoiy ta'sir jarayonlari. Ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifalari. Shaxs xulq-atvorini tushuntirish, ijtimoiy munosabatlarni tahlil qilish, guruh jarayonlarini o'rganish va ijtimoiy muammolarga psixologik yondashuvni shakllantirish yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

2 mavzu: Ijtimoiy psixologiya tadqiqot metodlari. Ijtimoiy-psixologik hodisalarni o'rganishda qo'llaniladigan ilmiy metodlar: kuzatish, so'rovnoma, intervyu, test, sotsiometriya, eksperiment va kontent-tahlil usullarining mazmun-mohiyati. Har bir metodning afzallik va cheklovlari, ularni amaliyotda qo'llash tartibi hamda ishonchli natija olishdagi ahamiyati. Ijtimoiy tadqiqotlarni tashkil etish bosqichlari. Natijalarni qayta ishlash masalalari yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

5 mavzu: Ijtimoiy rol va maqom tushunchasi. Ijtimoiy rol va ijtimoiy maqom tushunchalari, ularning shaxs xulq-atvoriga ta'siri va jamiyatdagi o'rni. Shaxsning turli ijtimoiy guruhlarda (oila, jamoa, ish joyi) bajaradigan rollari. Rollar o'rtasidagi ziddiyatlar va ularni boshqarish masalalari. Ijtimoiy maqomning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Shaxs psixologik holati bilan bog'liqligi yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

6 mavzu: Shaxslararo munosabatlar va ularning turlari. Shaxslararo munosabatlarning mazmuni, ularning emotsional, ishbilarmonlik va rasmiy-norasmiy turlari. Munosabatlarning shakllanish omillari, rivojlanish bosqichlari va shaxs xulq-atvoriga ta'siri. Ijobiy va salbiy munosabatlar dinamikasi hamda ularni boshqarish psixologik usullari yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

8 mavzu: Ijtimoiy idrok va persepsiya jarayonlari. Insonning boshqa odamlarni qabul qilishi, tushunishi va baholashi jarayonlari. Ijtimoiy idrokning mazmuni sifatida. Persepsiya jarayonida stereotiplar, atributsiya, birinchi taassurot va kognitiv xatolarning roli. Shaxslararo munosabatlarda to'g'ri idrok qilishning ahamiyati va kommunikatsiya samaradorligiga ta'siri yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

9 mavzu: Ijtimoiy ustanovkalar va attityudlar. Ijtimoiy ustanovkalarining shakllanishi, tuzilishi va ularning shaxs xulq-atvoriga ta'siri. Attityudlarning kognitiv, emotsional va xulqiy komponentlari. Ustanovkalarining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar, ishontirish mexanizmlari va ularni amaliyotda qo'llash masalalari yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

10 mavzu: Kichik guruhlar psixologiyasi. Kichik guruhlar psixologiyasida guruhlar ichidagi xulq-atvori, o'zaro ta'sir va munosabatlari. Kichik guruhlarining rasmiy va norasmiy turlari, ularning shakllanish shartlari va rivojlanish bosqichlari.

Guruh ichida rollar taqsimoti, guruh normalari va qoidalarining vujudga kelishi. Liderning paydo bo'lishi kabi jarayonlar. Guruhning shaxsga ta'siri - konformizm, identifikatsiya va guruh bosimi kabi psixologik mexanizmlar. Kichik guruhning samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar hamda guruh birligi masalalari yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

11 mavzu: Guruhda liderlik va rahbarlik. Liderlik va rahbarlik tushunchalari, ularning o'zaro farqlari va umumiy jihatlari. Liderlikning turli nazariy yondashuvlari, xususiyatlar nazariyasi, vaziyatli yondashuv va xulq-atvor nazariyalari. Guruhda liderning ta'sir o'tkazish usullari, qaror qabul qilishdagi roli va jamoani yo'naltirish funksiyalari. Rahbarning rasmiy vakolatlari va liderning norasmiy ta'siri o'rtasidagi munosabatlar. Samarali rahbar va lider shaxsining psixologik xususiyatlari, motivatsiya berish va jamoani boshqarish ko'nikmalari yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

13 mavzu: Guruh dinamikasi jarayonlari. Guruh dinamikasi guruh ichidagi doimiy o'zgarish va rivojlanish jarayonlari. Guruhning shakllanish, barqarorlashish, samarali faoliyat bosqichlari va ehtimoliy inqiroz holatlari. Guruh ichidagi kommunikatsiya jarayonlari, axborot almashinuvi va o'zaro ta'sir mexanizmlari. Guruh normalari, rollar, statuslar va ichki ziddiyatlarning dinamikasi. Guruhning umumiy psixologik iqlimi va uning faoliyat samaradorligiga ta'siri yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

14 mavzu: Jamoaviy qaror qabul qilish psixologiyasi. Jamoaviy qaror qabul qilish jarayonida guruh a'zolarining fikrlari, ta'siri va o'zaro munosabatlari. Qaror qabul qilish bosqichlari - muammoni anglash, alternativallarni ishlab chiqish, muhokama va yakuniy qaror kabi jarayonlar. Guruh fikrlash hodisasi, konformizm va lider ta'siri qaror sifatiga ta'sir etuvchi omillar. Samarali qaror qabul qilish usullari, konsensusga erishish yo'llari va jamoada ratsional qaror qabul qilish shartlari yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

15 mavzu: Nizolar psixologiyasi va konfliktlarni hal etish. Nizolar shaxslararo va guruhlararo munosabatlarda qarama-qarshilik. Mavzuda konfliktlarning kelib chiqish sabablari - resurslar taqsimoti, qadriyatlar farqi, muloqotdagi tushunmovchiliklar. Konfliktlarning rivojlanish bosqichlari: paydo bo'lish, kuchayish, avj olish va hal etilish jarayonlari. Konfliktlarni hal etish strategiyalari - hamkorlik, kompromiss, raqobat, moslashuv va chetlashish usullari. Nizolarni profilaktika qilish va ijobiy konflikt boshqaruvi masalalari yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

16 mavzu: Stereotiplar va ijtimoiy ta'sir mexanizmlari. Stereotiplar, ular inson idroki va xulq-atvoriga sezilarli ta'siri. Stereotiplarning shakllanish manbalari, ularning ijobiy va salbiy jihatlari. Ijtimoiy ta'sir mexanizmlari sifatida ishontirish, suggestiya, taqlid, konformizm va manipulyatsiya jarayonlari. Ommaviy kommunikatsiya, guruh ta'siri, ijtimoiy muhitning shaxs qarorlari va xulq-atvoriga ta'siri yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

3.2. Amliy mashg'ulotlar mazmuni

2 mavzu: Ijtimoiy psixologiya tadqiqot metodlari. Amaliy mashg'ulotda tinglovchilar ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazishning bosqichma-bosqich texnologiyasi. Kuzatish, so'rovnomma, intervyu, test va sotsiometriya kabi asosiy metodlar amalda qo'llash. Tinglovchilar kichik guruhlarga bo'linib, real yoki modellashtirilgan vaziyat asosida ma'lumot yig'ish, uni tizimlashtirish va dastlabki tahlil qilish ishlari. Olingan natijalar asosida xulosa chiqarish va metodlarning afzallik va kamchiliklarini taqqoslash bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

3 mavzu: Shaxs va ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir. Shaxsning xulq-atvori va ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonlari. Turli hayotiy vaziyatlar (oilalar, jamoalar, ta'lim muhiti) asosida muhitning shaxs qarorlari, xulqi va qadriyatlariga ta'siri. Guruhiy muhokama, keys-taxlil va rolli modellashtirish orqali ijtimoiy ta'sir mexanizmlari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

4 mavzu: Shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni. Shaxsning ijtimoiylashuv jarayoniga ta'sir etuvchi asosiy omillar - oilalar, ta'lim tashkilotlari, tengdoshlar guruhi, mehnat jamoasi, ommaviy axborot vositalari va raqamli muhitning roli tahlil. Shaxsning bolalikdan kattalikkacha bo'lgan ijtimoiylashuv bosqichlari. Ijtimoiylashuvda uchraydigan qiyinchiliklar, masalan, moslashuv muammolari, ijtimoiy izolyatsiya, salbiy muhit ta'siri. Muayyan shaxs misolida uning ijtimoiy muhit ta'sirida shakllangan xulq-atvorini tahlil qilish va xulosa chiqarish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

5 mavzu: Ijtimoiy rol va maqom tushunchasi. Shaxsning jamiyatda bajaradigan turli ijtimoiy rollari va egallaydigan maqomlarini amalda tahlil qilish. Rolli o'yinlar orqali bir shaxsning bir vaqtning o'zida bir nechta rollarni bajarishi (masalan, ota-ona, mutaxassis, rahbar, do'st) va bu holatning uning xulq-atvoriga ta'siri. Ijtimoiy maqomning shaxs o'zini anglashi, muloqot uslubi va qaror qabul qilishiga ta'siri. Rollar o'rtasidagi ziddiyatlar, rol kutilmalari va ularni samarali boshqarish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

6 mavzu: Shaxslararo munosabatlar va ularning turlari. Shaxslararo munosabatlarning turlari - do'stona, kasbiy, rasmiy, norasmiy, emotsional va konfliktli munosabatlarni amaliy keyslar orqali o'rganish. Guruhdagi munosabatlarni kuzatish, o'zaro ta'sir xususiyatlarini aniqlash va munosabatlarga ta'sir etuvchi psixologik omillarni tahlil qilish. Muayyan vaziyatlarda ishonch, hurmat, hamkorlik va raqobat kabi omillarning shakllanishi muhokamasi. Amaliy mashqlar orqali samarali munosabatlarni shakllantirish va salbiy munosabatlarni yumshatish usullarini ishlab chiqish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

7 mavzu: Shaxslararo muloqotda empatiya va faol tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish. Muloqot madaniyati va psixologik ta'sirchanlikni rivojlantirish. Empatiya - suhbatdoshning his-tuyg'ularini tushunish va his etish qobiliyati sifatida amaliy mashqlar orqali shakllantirish. Faol tinglash texnikasi - savol berish, qayta bayon qilish, aniqlashtirish va his-tuyg'ularni aks ettirish usullari. Muloqotdagi noto'g'ri tinglash, shoshma-shosharlik bilan xulosa chiqarish

va hissiy to'siqlar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

8 mavzu: Ijtimoiy idrok va persepsiya jarayonlari. Boshqa insonlarni qabul qilish va baholash jarayonlarini tahlil qilish. Birinchi taassurotning shakllanishi, tashqi ko'rinish, nutq va xulq-atvor asosida shaxs haqida fikr yuritish holatlari. Persepsiya jarayonida yuzaga keladigan xatolar - stereotiplash, atributsiya xatosi, "oreol effekti" kabi holatlarni maxsus mashqlar orqali aniqlash. To'g'ri ijtimoiy idrokni shakllantirishning amaliy usullari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

9 mavzu: Ijtimoiy ustanovkalar va attityudlar. Shaxsning muayyan voqea, shaxs yoki ijtimoiy guruhga nisbatan shakllangan munosabatlari - attityudlarni amalda tahlil qilish. Test va so'rovnomalar orqali ishtirokchilarning shaxsiy ustanovkalari aniqlash. Ustanovkalarining qaror qabul qilish, muloqot va xulq-atvorga ta'sirini muhokama qilish. Ishontirish, fikrni o'zgartirish va ijtimoiy ta'sir orqali ustanovkalarni shakllantirish jarayonlari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

10 mavzu: Kichik guruhlar psixologiyasi. Kichik guruhlarning ichki tuzilmasi, a'zolar o'rtasidagi munosabatlar va o'zaro ta'sir jarayonlari. Sotsiometriya usuli yordamida guruh ichidagi simpatiya, antipatiya va norasmiy liderlarni aniqlash. Guruhda hamkorlik, raqobat, izolyatsiya kabi holatlar tahlil qilinib, guruhning umumiy psixologik iqlimini baholash. Guruh faoliyatini yaxshilashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

11 mavzu: Guruhda liderlik va rahbarlik. Liderlik va rahbarlik holatlarini modellashtirish orqali turli boshqaruv uslublari. Avtoritar, demokratik va liberal uslublarning guruh faoliyatiga ta'sirini rolli o'yinlar orqali namoyon qilish. Liderning guruh motivatsiyasi, qaror qabul qilish va nizolarni hal etishdagi rolini tahlil qilish. Samarali liderlik fazilatlarini rivojlantirishga bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

12 mavzu: Guruh bosimi va konformizm. Guruh bosimi ta'sirida qaror qabul qilish va o'z fikridan voz kechish holatlarini modellashtirilgan vaziyatlar orqali tahlil qilish. Konformizmning psixologik sabablari, ijtimoiy maqbullikka intilish va guruhga moslashish jarayonlari muhokama qilish. Mustaqil fikrni himoya qilish va guruh bosimiga qarshi turish strategiyalarini qo'llash bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

13 mavzu: Guruh dinamikasi jarayonlari. Guruhning tashkil topishi, ichki munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi bosqichlarini kuzatish. Guruhdagi rollar almashinuvi, ichki ziddiyatlar, guruh normalari va hamkorlik jarayonlari maxsus mashqlar orqali tahlil qilish. Guruh birligini mustahkamlash va samarali hamkorlikni ta'minlash usullari ishlab chiqish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

14 mavzu: Jamoaviy qaror qabul qilish psixologiyasi. Jamoaviy muhokama asosida muammoli vaziyatlarga yechim topish. Qaror qabul qilishda turli fikrlarni muvofiqlashtirish, konsensusga kelish va mas'uliyatni taqsimlash

jarayonlarini tahlil qilish. Jamoaviy qaror qabul qilishda emotsional ta'sir, lider roli va vaqt bosimi omillari o'rganish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

15 mavzu: Nizolar psixologiyasi va konfliktlarni hal etish. Nizoli vaziyatlar roli o'yinlar orqali modellashtirish. Konflikt sabablarini aniqlash, tomonlarning pozitsiyalarini tahlil qilish va yechim strategiyalarini ishlab chiqish. Hamkorlik, kompromiss, raqobat va muzokara kabi usullar amalda qo'llash. Nizolarni profilaktika qilish usullari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

16 mavzu: Stereotiplar va ijtimoiy ta'sir mexanizmlari. Ijtimoiy stereotiplarni aniqlash va ularning inson xulq-atvoriga ta'siri. Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va jamoatchilik fikri orqali shakllanadigan ta'sir holatlarini muhokama qilish. Tanqidiy fikrlash va stereotiplarni yengishga qaratilgan mashqlar bajarish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

17 mavzu: Ijtimoiy ta'sir va manipulyatsiya holatlarini aniqlash. Turli muloqot va ijtimoiy vaziyatlarda manipulyatsiya usullarini aniqlashga qaratilgan keyslar. Yashirin ta'sir, emotsional bosim, aybdorlik hissini uyg'otish, yolg'on ishontirish kabi usullarni tahlil qilish. Manipulyatsiyaga qarshi psixologik himoya mexanizmlarini ishlab chiqish va amalda qo'llash bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

IV. NAZORAT SAVOLLARI

1. Ijtimoiy psixologiya fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Ijtimoiy psixologiyaning boshqa psixologiya sohalari bilan bog'liqligi qanday?
3. Ijtimoiy psixologiyada qo'llaniladigan tadqiqot metodlari qaysilar?
4. Shaxs va ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir qanday kechadi?
5. Shaxsning ijtimoiylashuvi deganda nima tushuniladi?
6. Ijtimoiylashuv jarayonining asosiy bosqichlari qaysilar?
7. Ijtimoiy rol tushunchasi nima?
8. Ijtimoiy maqom qanday shakllanadi?
9. Shaxslararo munosabatlar deganda nima tushuniladi?
10. Shaxslararo munosabatlarning asosiy turlari qaysilar?
11. Muloqot psixologiyasining mazmuni nimadan iborat?
12. Empatiya tushunchasi va uning muloqotdagi ahamiyati qanday?
13. Ijtimoiy idrok (persepsiya) nima?
14. Ijtimoiy persepsiya jarayonida qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
15. Attityudlarning shakllanishiga qanday omillar ta'sir qiladi?
16. Kichik guruh deganda nima tushuniladi?
17. Kichik guruhlarning psixologik xususiyatlari nimalardan iborat?
18. Liderlik va rahbarlik tushunchalari o'rtasida qanday farq bor?
19. Guruh bosimi nima va u qanday namoyon bo'ladi?
20. Guruh dinamikasi qanday jarayonlarni o'z ichiga oladi?
21. Jamoaviy qaror qabul qilishning psixologik xususiyatlari nimalardan iborat?
22. Nizo (konflikt) tushunchasi va uning turlarini ayting.
23. Konfliktlarni hal etishning qanday usullari mavjud?
24. Stereotiplar qanday shakllanadi va ularning ijtimoiy ta'siri nimada?

25. Ijtimoiy ta'sir va manipulyatsiya mexanizmlari qanday namoyon bo'ladi?

V. O'QITISH VOSITALARI

1. Doska;
2. Flipchart qog'ozi;
3. Qog'oz A4 formatli yetarlicha;
4. Markerlar;
5. Tarqatma materiallar;
6. Multimediya to'plami (kompyuter, videoproektor, elektron doska, monitor).

VI. FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 23-iyulda "Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi O'RQ-989-son Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrda "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-190-son Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-316-son Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyulda "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 577-son Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevralda "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 106-son Qarori.

Asosiy adabiyotlar

1. Андреева Г.М. Социальная психология: Учебник, 2003.
2. Социальная психология: Курс лекций/В.Г.Крысько. 3-е изд. -М.: Омега-Л, 2006. -352 с; табл., илл. (Библиотека высшей школы.) - ISBN 5-98119-390-5.
3. Т.Ю.Ломакина, А.В.Жукова, Г.А.Фирсов "Психологическая служба в среднем профессиональном образовательном учреждении" (методические рекомендации) Москва 1996

4. SH.T.Halilova, J.A.Po'latov Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash metodikasi O'MKXTTKMO va O'QTI T: 2013 y.

5. A.V.Батариев Психодиагностика особенности к общению или как определить организаторские и коммуникативные качества личности. 1999.

6. В.Н.Дружинин Психология и психодиагностика общих способности. М: 2000.

7. Андреева Г.М. Социальная психология: Учебник, 2003.

8. V.M.Karimova, F.A.Akromova "Psixologiya" Ma'ruzalar matni.

9. A.V.Petrovskiy tarjimon B.Yusupov "Umumiy psixologiya" Toshkent-"O'qituvchi" 1992.

10. G.Yadgarova, O.Avlayev. "Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlash metodikasi". 2007 y.

Internet saytlar

1. www.lib.psixology.msu.ru

2. www.psychology.net.ru

3. www.hse.ru/psy/courses

4. https://psyjournals.ru/social_psy/

5. <https://elib.bsu.by/bitstream/>